

BIRINCHI CHORAK ASOSIY YAKUNLARI

- 2025-yilning I choragi yakunlariga ko'ra, savdolarning umumiy hajmi 2,90 trillion so'm (224,52 million dollar)ni tashkil etdi, bu 2024-yilning I choragiga nisbatan 2,68 trillion so'mga yoki 13 barobarga ko'pdir.
- Ushbu hajmning 1,5 trln so'mi (116,35 mln dollar) yoki 51,82 foizi birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar bilan tuzilgan bitimlarga to'g'ri keldi. Qolgan savdo hajmi uyushgan birjadan tashqari bozorda (listingdan tashqari savdo maydonchasi, LTSM) tuzilgan bitimlar hisobiga shakllandi.
- Tuzilgan bitimlarning umumiy soni 132 845 tani tashkil etib, 2024-yilning I choragiga nisbatan 16 455 taga yoki 11,02 foizga kamaydi. Shunda birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar bilan 114 309 ta bitim, uyushgan listingdan tashqari bozorda esa 18 536 ta bitim tuzildi.
- O'rtacha kunlik savdolar hajmi 48,36 mlrd so'mni (3,74 mln dollar), o'rtacha kunlik bitimlar soni esa 2 214 tani tashkil etdi.
- Chorak yakunlariga ko'ra, UCI indeksi 0,33 foizga pasayib, 652,93 punkt darajasida yopildi.

BOZOR SHARHI**AKSIYA BOZORI**

Aksiyalar bozorida savdolar hajmi 1,29 trln so'm (99,86 mln dollar)ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,12 trln so'mga yoki 668,87 foizga oshgan. Savdolarning asosiy hajmi (1,19 trln so'm) pulsiz hisob-kitoblar platformasi (Free of Payment Board, FoP) hissasiga to'g'ri keldi.

Aksiyalar bozorida savdolarning o'rtacha kunlik hajmi 21,50 mlrd so'm -(1,66 mln dollar)ni, bitimlarning o'rtacha kunlik soni esa 1 889 tani tashkil etdi.

Aksiyalarning bozor kapitallashuvi 127,96 mlrd so'mga yoki 0,05 foizga kamayib, 242,29 trln so'm (18,76 mlrd dollar)ni tashkil etib, erkin muomalada bo'lgan aksiyalarning (free float) bozor kapitallashuvi esa 4,07 trln so'mni tashkil etdi.


I-chorak yakuni holatiga ko'ra, Birjaning birja kotirovkalash varag'ida 94 ta emitentning aksiyalari mavjud edi.

Aksiya bozorining asosiy ko'rsatkichlari

		I-ch 2021	I-ch 2022	I-ch 2023	I-ch 2024	I-ch 2025
Savdo hajmi	<i>mln so'm</i>	119 838	3 155 047	1 665 234	167 794	1 290 115
O'rtacha kunlik savdo hajmi	<i>mln so'm</i>	1 933	53 475	26 859	2 751	21 502
Bitta bitimning o'rtacha hajmi	<i>mln so'm</i>	10,5	154,6	35,8	1,3	11,4
Bitimlar soni	<i>dona</i>	11 405	20 414	46 572	133 301	113 347
O'rtacha kunlik bitimlar soni	<i>dona</i>	184	346	751	2 185	1 889

UCI INDEKSI

Chorak yakunlariga ko'ra, UCI indeksi 2,19 punktga yoki 0,33 foizga pasayib, 652,93 punkt darajasida yopildi.



OBLIGATSIYALAR BOZORI

Korporativ obligatsiyalar bozorida savdolar hajmi 213,35 mlrd so'm (16,49 mln dollar)ni tashkil etib, 2024-yilning I choragiga nisbatan 209,26 mlrd so'mga yoki 51 barobardan ko'proqqa oshdi.

Obligatsiyalar bozorida savdolarning o'rtacha kunlik hajmi 3,6 mlrd so'mni, o'rtacha kunlik bitimlar soni 16 tani tashkil etdi.

Birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan obligatsiyalarning bozor qiymati 1,50 trln so'm (116,43 mln dollar)ni tashkil etdi.

Obligatsiya bozorining asosiy ko'rsatkichlari

		I-ch 2021	I-ch 2022	I-ch 2023	I-ch 2024	I-ch 2025
Savdo hajmi	mln so'm	5 128	535	1 593	4 092	213 349
O'rtacha kunlik savdo hajmi	mln so'm	83	9	26	67	3 556
Bitta bitimning o'rtacha hajmi	mln so'm	30,3	76,4	34,6	12,2	221,8
Bitimlar soni	dona	169	7	46	335	962
O'rtacha kunlik bitimlar soni	dona	3	1	1	5	16



LISTING

Chorak yakuni holatiga ko'ra, birja kotirovkalash varag'ida 102 ta emitentning 153 ta instrumentlari mavjud edi.

Chorak davomida 10 ta emitentning 11 ta yangi instrumentlari - 5 ta korporativ obligatsiyalar va 6 ta aksiyalar chiqariluvini kiritildi.

LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONCHASI

I-chorak yakunlari bo'yicha Birjaning listingdan tashqari savdo maydonchasida 18 536 ta bitim tuzildi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18,4% ga ko'pdir.

Savdolar hajmi 1,4 trln so'm (108,2 mln dollar)ni tashkil etdi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 28 baravar ko'pdir.

125 ta emitentning qimmatli qog'ozlari bitimlar obyektiga bo'ldi.